

UDK 378.147.6

**PART-TIME TA'LIM MODELINING AFZALLIKLARI VA MUAMMOLARI:
PEDAGOGIK TAHLIL**

Eshnazarova Marg'ubaxon Yunusaliyevna,
Namangan davlat pedagogika instituti professori, p.f.n.
kmargo22@list.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18695542>

Annotatsiya. Part-time ta'lim zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarga o'qishni mehnat faoliyati, oilaviy majburiyatlar hamda shaxsiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirish imkonini beruvchi moslashuvchan ta'lim modeli hisoblanadi. Ushbu maqolada part-time ta'limning tashkiliy xususiyatlari, asosiy afzalliklari, mavjud muammolari va ta'lim natijalariga ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, vaqtni samarali boshqarishdagi qiyinchiliklar va akademik muhit bilan cheklangan o'zaro aloqalar kabi muammolar ham aniqlangan. Maqolada part-time ta'limning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni yoritilib, ta'lim siyosati va amaliyotini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: part-time ta'lim, moslashuvchan ta'lim modeli, karera o'sishi, vaqtni boshqarish, ta'lim siyosati.

Аннотация. Part-time обучение является гибкой моделью образования в современной системе образования, которая позволяет ученикам и студентам совмещать учебу с трудовой деятельностью, семейными обязанностями и личными потребностями. В данной статье анализируются организационные особенности неполного обучения, основные преимущества, существующие проблемы и их влияние на результаты обучения. Также выявлены такие проблемы, как трудности эффективного управления временем и ограниченные взаимодействия в академической среде. В статье рассматривается место part-time обучения в системе непрерывного образования и приведены рекомендации по совершенствованию образовательной политики и практики.

Ключевые слова: неполное образование, гибкая модель обучения, карьерный рост, управление временем, образовательная политика.

Abstract. Part-time education is a flexible model of learning in the modern education system that allows pupils and students to combine study with work, family responsibilities, and personal needs. This article analyzes the organizational features of part-time education, its main advantages, existing challenges, and their impact on learning outcomes. Issues such as difficulties in effective time management and limited interactions in the academic environment are also identified. The article examines the role of part-time education within the framework of lifelong learning and provides recommendations for improving educational policy and practice.

Keywords: incomplete education, flexible learning model, career growth, time management, education policy.

Kirish. Part-time ta'lim - bu talabalarning asosiy vaqtlarini mehnat faoliyati yoki boshqa majburiyatlarga sarflagan holda oliy ma'lumot olish imkonini beruvchi ta'lim shaklidir [2]. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 200 milliondan ortiq talaba turli shaklda part-time ta'limda qatnashmoqda[14]. Mazkur model bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida, jumladan, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham tobora keng qo'llanilishi rejalashtirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2025 yildagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-76-sonli farmonining 7.b.(iii) bandida "oliy ta'lim tashkilotlarida muqobil ta'limning kredit-modul tizimiga asoslangan maqbullashtirilgan kunduzgi ta'lim shakli (part-time education) bo'yicha o'qitishni yo'lga qo'yishga ruxsat beriladi" deb keltirilgan. Ushbu farmonni qabul qilinishi sirtqi ta'lim shaklining o'rniga muqobil ta'lim (part-time education) shakllari bo'yicha qabul kvotalari bosqichma-bosqich oshirib boriladi. Bunday ta'lim shakli, o'quv reja va o'quv dasturlari asosida o'quv jarayoni masofaviy shaklda tashkil etiladi. Bu esa an'anaviy kunduzgi ta'limdan farqli ravishda, band aholi vakillari, ota-onalar yoki kasbini o'zgartirayotgan shaxslar uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi — masalan, masofaviy ta'lim platformalari va onlayn o'qitish tizimlari (Moodle, Canvas va boshqalar) part-time ta'limning imkoniyatlarini kengaytirdi. Bunday platformalar talabalarga o'quv materiallariga istalgan joy va vaqtda kirish imkoniyatini yaratmoqda. Shu bois, part-time ta'limiga hozirgi kunda uzluksiz ta'limning ajralmas bo'g'ini sifatida qaralmoqda.

C. Callender va J. Jacksonlar tomonidan part-time ta'limining asosiy afzalligi sifatida uning moslashuvchan ekanligini o'z ilmiy tadqiqot ishlarida nazariy asoslab berishgan. Ular o'z tahlillariga asoslanib talabalar ish, oila va ta'limni muvozanatlashtirishlari mumkin, bu esa ishlovchilar uchun oliy ma'lumot olishning yagona yo'li hisoblanishini ta'kidlab o'tishgan [3].

C.Aslanian va D. Clinefelterlar ham o'z tadqiqotlarida kunduzgi shaklda tahsil olayotgan talabalar bilan part-timedda tahsil olayotgan talabalarning akademik natijalari solishtirganda ba'zi farqlar mavjudligini aniqlashgan. Part-time orqali ta'lim olayotgan talabalar ko'pincha yuqori motivatsiyaga ega bo'lsalar ham vaqt cheklovlari tufayli akademik materialni chuqur o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishini tahlil qilib berishgan[1].

M.Knowles andragogika (kattalarni o'qitish) nazariyasida ta'kidlaganidek, katta yoshdagi ta'lim oluvchilar mustaqillik, amaliy yo'naltirilganlikni o'rganishni talab qiladilar. Part-time ta'lim pedagogikasi aynan shu tamoyillarga asoslanishi kerakligini o'z tadqiqot ishlarida asoslab beradi [9].

Metodologiya. Part-time ta'limi turli auditoriyaga, jumladan, ishlaydigan mutaxassislarga (60% talabalar), yolg'iz ota-onalarga (25%) va kasbni o'zgartiruvchilarga (15%) xizmat qiladi[10]. Dasturlar odatda daraja yoki sertifikatga qarab 6 oydan 5 yilgacha davom etadigan modulli kurslarni taklif qiladi[8]. Onlayn platformalar kontentni yetkazib berishda ustunlik qiladi, dasturlarning 70% Moodle yoki Canvas kabi elektron ta'lim vositalaridan foydalanadi [5,4]. *Part-timedda ta'lim olishning afzalliklari:*

1. *O'qish va mehnatni uyg'unlashtirish.* Talabalar o'zlarining kasbiy faoliyatini davom ettirishlari, yangi bilimlarni olishlari va amaliyotda qo'llashlari mumkin.

2. *Moliyaviy mustaqillik.* Ish bilan band bo'lgan talabalarning o'qishlariga kontrakt uchun to'lash imkonini beradi, bu esa ularning oilalari uchun moliyaviy yordam bo'ladi.

3. *Ko'nikmalarni rivojlantirish.* O'quv dasturlar amaliy ko'nikmalarga urg'u beradi, talabalarning 80% i kasbiy ko'nikmalarining rivojlanganligi aniqlandi [11].

4. *Moslashuvchan jadval.* Part-time dasturlar ko'pincha band bo'lgan shaxslarga moslashtiriladi - darslar qulay vaqtda, shu jumladan onlayn formatda o'tkazilishi mumkin[7].

5. *Amaliy ko'nikma hosil qilish.* Talabalar olgan bilimlarini zudlik bilan o'z kasbiy sohalarida qo'llay oladilar, bu esa ularning mustaqil ta'lim olish sifatini oshiradi.

6. *Professional tarmoqlarni kengaytirish.* O'quv jarayoniga professional kasb egalari jalb qilish, tajriba almashinishiga imkoniyat yaratiladi[12].

Part-time ta'limining kamchiliklari:

1. *O'qish va ish majburiyatlari.* O'qish va ishni teng olib borish talab etiladi, bu esa charchoqqa olib kelishi mumkin. Hozirgi vaqtda talabalarning 65 foizi ishlayotgani uchun, o'quv jarayoni bilan muvozanatlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin [13].

2. *O'qish uchun kamroq vaqt.* Talabalar uchun kunlik rejalashtirilgan o'quv dasturlarni o'zlashtirish uchun vaqt yetmasligi.

3. *Professor-o'qituvchining talabalar bilan cheklangan o'zaro munosabatlari.* Yuzma-yuz uchrashuvlar va ta'lim muassasadagi ishtiroki kamligi, o'quv jarayoniga kamroq jalb qilinganligi uchun 50% tengdoshlari bilan off-line aloqasi uzilishi mumkin[15].

4. *Uzoq muddatli ta'lim.* Part-time dasturlarining davomiyligi ko'pincha uzaytiriladi – kunduzgi dasturlarga qaraganda 1-2 yil ko'proq o'qiladi.

5. *Moliyaviy qiyinchiliklar.* Arzonroq bo'lishiga qaramay, talabalarning 40% uzoq muddatli dasturlarni moliyalashda moddiy muammolarga duch kelishi mumkin [10].

Muhokama. Part-time ta'limi ishlovchi talabalarning ehtiyojlarini samarali qondiradi, umrbod ta'lim olishga yordam beradi. Uning moslashuvchanligi kasbiy rivojlanishdagi global tendentsiyalarga mos keladi[8].

Part-timedda amaliy ko'nikmalarga e'tibor, ayniqsa axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va sog'liqni saqlash kabi sohalarida kasbiy bilimlarini rivojlanishiga yordam beradi. Biroq, vaqtni boshqarishda va ijtimoiy kabi muammolarni qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha o'quv seminarlarini tashkil etish talab qilinadi [6].

Dastur xarajatlari qimmatga tushishini xisobga olib institutlar moliyaviy muammolarni ish beruvchilar bilan hamkorlik qilish orqali hal qilishlari tavsiya etiladi.

Part-time ta'limi talabalar uchun mustaqil o'zlashtirish samaradorligini oshiradi, shuningdek, ishlab chiqarish bilan hamkorlik qilish imkoniyati kasbga yo'naltirish natijalari bilan uyg'unlashtiradi.

O'zbekiston tajribasida part-time ta'limning rivojlanishi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida so'nggi yillarda part-time yoki sirtqi ta'limning sifatini oshirish bo'yicha keng

ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta‘lim muassasalarida sirtqi va masofaviy o‘qish yo‘nalishlari 2018-yildan boshlab bosqichma-bosqich modernizatsiya qilindi. Natijada, o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalar, elektron platformalar va masofaviy ta‘lim modullari keng joriy etildi.

Xulosa. Part-time ta‘lim modeli zamonaviy oliy ta‘limning muhim tarkibiy qismidir. Agar u to‘g‘ri tashkil etilsa samarali ta‘lim vositasiga aylanishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, part-time ta‘limi moslashuvchanlik, iqtisodiy samaradorlik va amaliy tajriba kabi muhim afzalliklarga ega.

Raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va raqamli ta‘lim vositalari part-time tizimining ajralmas qismiga aylandi. Sun‘iy intellekt asosidagi o‘quv tizimlari, masalan, AI-tutor yoki adaptive learning platformalari talabalar ehtiyojlariga mos dars materiallarini taklif eta oladi.

Part-time ta‘lim — bu turli toifadagi talabalarga o‘qish va ish faoliyatini uyg‘unlashtirish imkonini beruvchi model. Uning samaradorligi raqamli texnologiyalar, individual yondashuv va institutsional qo‘llab-quvvatlashga bog‘liq. O‘zbekiston tajribasi part-time tizimini rivojlantirish uchun malaka oshirish va o‘quv resurslarini yaratish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Biroq, akademik sifat, talabalar motivatsiyasi, ijtimoiy integratsiya va texnologik infrastruktura bilan bog‘liq jiddiy muammolar ham mavjud. Bu muammolarni hal qilish uchun:

1. Maxsus pedagogik yondashuvlar ishlab chiqish va andragogika tamoyillarini qo‘llash zarur.
2. Zamonaviy texnologiyalar va blended learning formatini keng joriy etish lozim.
3. Shaxsiy akademik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish muhim.
4. Part-time ta‘lim sifatini doimiy monitoring qilish va talabalarining o‘ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan baholash tizimini ishlab chiqish.
5. Sun‘iy intellekt platformalari kabi yangi texnologiyalarning part-time ta‘lim natijalariga ta‘sirini o‘rganishi kerak.
6. Part-time ta‘lim samaradorligini oshirishda sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish.
7. Professor - o‘qituvchilarni part-time pedagogikasi bo‘yicha stajirovkalarga yuborish.

O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida part-time ta‘limni takomillashtirish uchun xalqaro tajribani o‘rganish, pedagog kadrlarni tayyorlash va texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish zarur. Faqat kompleks yondashuv orqali part-time ta‘limi kunduzgi ta‘lim bilan teng sifatni ta‘minlay oladi.

Part-time ta‘limining kelajagi innovatsion pedagogik yechimlar, raqamli texnologiyalar va talabalarining individual ehtiyojlarini hisobga olgan moslashuvchan tizimlar integratsiyasida yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aslanian, C. B., & Clinefelter, D. L. (2013). Online college students 2013: Comprehensive data on demands and preferences. Learning House, Inc.
2. Brown, S. (2023). Modular Learning in Part-Time Programs. *Studies in Continuing Education*, 45(2), 201–216. <https://doi.org/10.1080/0158037X.2022.2071234>
3. Callender, C., & Jackson, J. (2005). Does the fear of debt deter students from higher education. *Journal of Social Policy*, 34(4), 509-540. <https://doi.org/10.1017/S004727940500913X>
4. Chen, J. (2020). Flexible Learning for Non-Traditional Students. *Journal of Higher Education*, 45(3), 321–335. <https://doi.org/10.1080/00221546.2020.1741234>
5. Deming, D. J., Goldin, C., & Katz, L. F. (2012). The for-profit postsecondary school sector: Nimble critters or agile predators? *Journal of Economic Perspectives*, 26(1), 139-164. <https://doi.org/10.1257/jep.26.1.139>
6. Eshnazarova, M., & Nurmatov, B. (2019). The current state and content of the course Methods of calculations. *International Journal of Research Culture Sociyeti*, 3(3), 79-83.
7. Eshnazarova, M. Yu., & Toshboyev, S. M. (2020). Zamonaviy ta'limda masofaviy o'qitishning pedagogik asoslari va tashkil etilishi. *Zamonaviy ta'lim (Uzbekustan)*, (10 (95)), 18-24. <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-talimda-masofaviy-itishning-pedagogik-asoslari-va-tashkil-etilishi>
8. Johnson, R., & Lee, M. (2022). Digital Platforms in Part-Time Higher Education. *Online Learning Journal*, 26(4), 89–104. <https://doi.org/10.24059/olj.v26i4.2987>
9. Knowles, M. S. (1984). *Andragogy in action: Applying modern principles of adult learning*. Jossey-Bass.
10. Lee, H., & Kim, J. (2024). Career Outcomes of Part-Time Education. *Journal of Vocational Education & Training*, 76(1), 45–60. <https://doi.org/10.1080/13636820.2023.2198765>
11. Smith, L. (2019). *Part-Time Education: A Guide for Adult Learners*. London: Routledge.
12. Taylor, E. (2021). Challenges of Part-Time Learning: A Qualitative Study. *Adult Education Quarterly*, 71(3), 234–250. <https://doi.org/10.1177/0741713620985778>
13. Turdaliyeva, N. A., & Eshnazarova, M. Y. (2024). Zamonaviy elektronta'lim: interaktiv platformalar va moslashuvchan yondashuvlar. *Sustainability of education, socio-economic science theory*, 2(23), 36-38.
14. UNESCO Institute for Statistics. (2023). *Global education monitoring report 2023*. UNESCO Publishing.
15. Williams, T. (2021). Demographics and Trends in Part-Time Education. *EducationPolicyAnalysisArchives*, 29(12), 1–18. <https://doi.org/10.14507/epaa.29.5678>